

BOSHLANG'ICH TALIMDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH

*Samarqand davlat pedagogika instituti,
Pedagogika kafedrası o'qituvchisi
Usanov Sherzod Abdulaxatovich
Pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabalari
Malikova Munisxon Ma'rufjon qizi
Igamberdiyova Shirin Yusufjon qizi*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarni didaktik talablar asosida tashkil etish jarayoni yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается процесс организации интегрированных уроков в начальном образовании на основе дидактических требований.

Abstract: The article discusses the process of organizing integrated lessons in primary education based on didactic requirements.

Kalit so'zlar: Integratsiya, dars, boshlang'ich ta'lim, bilim, uyg'unlashtirish, zamonaviy ta'lim, ko'nikma, rivojlantirish, o'qitish, metod.

Ключевые слова: интеграция, урок, начальное образование, знания, гармонизация, современное образование, навыки, развитие, обучение, метод.

Keywords: Integration, lesson, primary education, knowledge, harmonization, modern education, skills, development, teaching, method.

Integratsiyalashgan dars — bu bir dars jarayonida bir nechta fan mazmunini o'zaro bog'lab, yagona maqsad asosida o'qitish shaklidir. Bunda o'quvchilarda bilimlar alohida emas, balki bir butun tizim sifatida shakllanadi.

Integratsiyalashgan darslarda o'quvchilarda mantiqiy va tizimli fikrlashni rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni anglatish, o'quv materialini hayot bilan bog'lash, o'quvchilarning bilishga qiziqishini oshirish asosiy masala sifatida qaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrof-muhitni yaxlit holda qabul qiladilar. Shuning uchun fanlarni alohida emas, o'zaro bog'liq holda o'qitish, bilimlarning mustahkam bo'lishiga, tushunish darajasini soddalashtiradi hamda qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi.

Vaqtan samarali foydalanish, mustaqil fikr yurituvchi, yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, eng avvalo, boshlang'ich ta'lim samaradorligiga bog'liq. Shu boisdan so'nggi yillarda ta'lim sohasida, xususan, boshlang'ich bosqichda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or metodlarni qo'llash, integratsiyalashgan darslarni tashkil etish keng ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa fanlararo bog'liqlikni kuchaytirib,

o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalar va mustaqil fikrlash layoqatini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta‘lim dasturlari bolalarda nafaqat asosiy bilimlarni, balki o‘ziga ishonch, muloqot madaniyati, ijodiy yondashuv hamda jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar dars mashg‘ulotlari davomida ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni ham o‘zlashtiradilar. Shuningdek, ular asosiy sabr-toqat, qat‘iyat, maqsad sari intiluvchanlik kabi fazilatlarni ham shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta‘limning muhim xususiyatlaridan yana biri — unga oid darslarda qulay va samarali o‘quv muhitini yaratish, har bir bola imkoniyatiga mos yondashuvni tanlash va bolalarning shaxsiy rivojlanishiga doimiy ravishda e‘tibor qaratish hisoblanadi. Zero, ushbu bosqichda olingan bilim va malakalar keyingi bosqichlarda o‘rganiladigan fanlar va hayotiy muammolarni yechishda asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta‘lim nafaqat dastlabki bilimlar manbai, balki har bir bolaning mustaqil, faol shaxs sifatida rivojlanishi uchun muhim poydevor hisoblanadi. Shu sababli, ular uchun yaratiladigan o‘quv muhitining qulay va samarali bo‘lishi, metod va usullarning zamonaviy va ilg‘or bo‘lishi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi [1].

Integratsiyalashgan darslar tashkil etilganda, o‘quvchining faqat bitta fanga emas, balki bir necha fanlardan bilim olishi bilan birga, ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Bunday darslarda o‘quvchi o‘z dunyoqarashini kengaytiradi, turli fanlarni o‘zaro bog‘liq ravishda o‘rganadi, savol-javoblar va muammoli vaziyatlarni yengilroq hal qilishni o‘rganadi. Natijada, o‘qituvchining asosiy vazifasi ma‘lum bir fan doirasidagina emas, balki bir nechta fanlar orqali o‘quvchi dunyoqarashini kengaytirishdan iborat bo‘ladi. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning asosiy ahamiyati shundaki, u bolalarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni yanada faol va mustaqil bo‘lishga undaydi. Bu jarayon ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilar turli hayotiy vaziyatlarda bilimlarini sinovdan o‘tkazishlari mumkin. Misol uchun, ona tili va matematika fanini bir darsda birlashtirib, matn ustida ishlashda qo‘yilgan masalalardan foydalanish mumkin. Bunday integratsiya orqali bola nafaqat hisob-kitobni, balki o‘qish va tushunishni, fikrini izchil ifodalashni ham birga o‘rganadi. Yana bir muhim jihati shundaki, integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z bilimlarini chuqur tahlil qilishga o‘rgatadi. Ular an‘anaviy darslardan farqli ravishda, bir-biriga bog‘liq bilimlarni bir butun holda qabul qilishadi. Ushbu jarayon bolalarni mustahkam ilmiy asosga ega inson, hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiluvchi sifatida shakllantiradi [2].

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish ham o‘z o‘rniga ega. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini dars jarayoniga jalb qilish, ta‘limni yanada samarali va qiziqarli

bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu orqali, o‘quvchilar ko‘proq interaktiv mashg‘ulotlar, harakatlilik, jamoa bilan ishlash, tushunchalarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Darslarni integratsiyalash tamoyiliga asoslangan holda, o‘qituvchi har bir bolaga individual yondashadi, ularning qiziqishlari, bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasini hisobga olgan holda, dars mazmunini shakllantiradi. Shuningdek, bunday yondashuv bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi, kommunikativ ko‘nikmalarining rivojlanishida ham o‘z samarasini beradi. O‘qituvchi har bir darsda bolalarning faolligini, nutqini, xotira va tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni qo‘llashi kerak [3].

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarni o‘tkazish – bolani hayotga tayyorlashdagi eng asosiy bosqichlardan biridir. Chunki bolada dastlabki bilimlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar va axloqiy tamoyillar boshlang‘ich maktabda shakllanadi. Integratsiyalashgan darslar esa, bu jarayonni yanada samarali qilishi shubhasiz. Fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlash, yangi bilimlarni hayotiy tajriba bilan boyitish, kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish madaniyati ana shu darslar orqali shakllanadi. Integratsiyalashgan darslarni tashkil qilishda, o‘qituvchi har bir sinfga mos va tushunarli bo‘lgan metodlarni tanlashga harakat qilishi zarur. Ko‘pincha, o‘quvchilar diqqatini bir butun ma’lumotlar asosida jalb qilish qiyin bo‘ladi, shuning uchun har bir dars rejasini puxta va sinfga xos tarzda tayyorlash zarur. Bu esa, o‘qituvchidan yuqori darajada malaka, pedagogik mahorat va tajriba talab qiladi. Integratsiyalashgan darslarda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uyg‘unlashtiriladi. Bu orqali o‘quvchilar yangi bilimlarni nafaqat tinglash va tushunishga, balki chuqur tahlil qilishga, mustaqil xulosa chiqarishga ham o‘rganadilar.

Ta’lim jarayonida bilimlarning bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rish, ular o‘rtasidagi tarixiy va zamonaviy aloqalarni anglash bolalarning kengroq fikrlashiga, hayotiy vaziyatlarda bilimlarni to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi. Ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy darslarni tashkil qilishda eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, fanlararo bog‘liqlik shakllaridan unumli foydalanish – o‘qituvchilardan yuqori darajada mas’uliyat, puxta tayyorgarlik, kichik mutaxassislik yo‘nalishlarini ham bilishni talab etadi. Chunki har bir integratsiyalashgan dars – nafaqat o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini, balki butun sinf hayotini faollashtirishga xizmat qiladi [4].

Darslar orqali o‘zgaruvchan dunyoga moslashgan, yangi bilimlarni tez o‘zlashtirib, amaliyotda qo‘llay oladigan yosh avlodni tarbiyalashda integratsiyalashgan darslar eng muhim poydevor hisoblanadi. Bunday darslar bolalarning hayotga moslashishini, ularda keng ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanishini, o‘zaro fikr almashish, savol-javob qilish, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etishni o‘rgatadi. Shuningdek, integratsiyalashgan darslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil dars tayyorlash, o‘z ustida ishlash, yoshiga mos o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish malakalarini ham rivojlantiradi. Bunday darslarda

bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta muammoli vaziyatlarni chuqur o'rganadilar, mavjud bilimlarini boyitadilar va mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgandilar. Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning yana bir muhim jihati shundaki, bu usul orqali o'quvchilarning individual va guruhda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalar bir-biridan o'rganadilar, fikr almashadilar, uyushgan holda muammolar echimiga keladilar.

Guruhlarda ishlash, mustaqil xulosalar qilish, o'z fikrini to'g'ri va ravon ifodalash – hozirgi kunning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, integratsiyalashgan darslar bu borada ulkan imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim jarayoni bolalarning tafakkurini, dunyoqarashi va salohiyatini kengaytirishda integratsiyalashgan yondashuv eng to'g'ri va samarali hamda zamonaviy usullarni qo'llashga yo'naltiradi. Bu esa, kelajakda har bir bola uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajak egalari bo'lmish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ilmga, faoliyatga, o'z-o'zini anglashga bo'lgan qiziqish, bilimlarni zo'r berib o'rganish asosiy vazifalardan biridir [5].

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslar orqali o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga, xulosalar chiqarishga, fanlararo bog'liqlikni tushunishga, ijodiy va keng ko'lamda dunyoni idrok etishga o'rganadilar. Bu esa, ular uchun zamonaviy jamiyatda munosib o'rin egallash, mustahkam bilimli, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlariga asos bo'ladi. Har bir o'qituvchi o'z ishida integratsiyalashgan darslarni tashkil qilishga e'tibor berib, bolalarda keng dunyoqarash, chuqur tafakkur va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishi zarur. Shu tarzda, zamonaviy ta'lim jarayonida integratsiyalashgan darslar eng muhim va dolzarb masala bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, D. (2019). "Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyalashgan o'qitishning samaradorligi". *Pedagogika va innovatsiyalar*, 3(2), 112-117.
2. Aliqulova, N. (2020). "Integratsiyalashgan o'quv darslarini tashkil etishning dolzarb masalalari". *Boshlang'ich ta'limda yangiliklar*, 5(4), 88-95.
3. Arziqulova, M. (2021). "Boshlang'ich sinflarda faoliyatga asoslangan integratsiyalashgan darslar". *Zamonaviy ta'lim*, 10(1), 51-57.
4. Bobojonova, Z. (2018). "Analitik tafakkurni rivojlantirishda integratsiyalashgan darslarning o'rni". *Boshlang'ich ta'lim*, 2(7), 49-53.
5. Boymurodov, I. (2021). "Fanlararo integratsiyani o'qitish jarayonida amalga oshirish". *Pedagogika va psixologiya*, 19(2), 23-28.
6. G'ulomova, S. (2019). "Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondoshuv asoslari". *Ta'limda rivojlanish*, 8(6), 115-121.
7. Islomova, D. (2022). "Yangi pedagogik texnologiyalar asosida integratsiyalashgan darslarni tashkil etish". *Boshlang'ich ta'lim muammolari*, 6(5), 60-66.
8. Jo'raqulova, N. (2017). "O'qituvchilar uchun integratsiyalashgan darslarni loyihalash". *O'qituvchi va zamon*, 1(3), 77-83.
9. Qurbonova, L. (2020). "Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarning afzalliklari". *Ta'lim va tarbiya*, 4(9), 132-139.